

**O‘QITISH JARAYONIDA INKLYUZIV TA‘LIMNING AHAMIYATI VA  
BUGUNGI KUNDA BU BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARGA YECHIMLAR**

**Jumayeva Mushtariy**

*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari  
universiteti Xorijiy ingliz tili va  
adabiyoti 2-fakultet talabasi*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received:09.04.2026*

*Revised: 10.04.2026*

*Accepted:11.04.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*inklyuziv ta‘lim,  
ijtimoiy integratsiya,  
federal  
qonun,diskriminatsiya,  
segregatsiya, audio  
kitoblar,zamonaviy  
texnologiyalar,multimedia,  
interaktiv  
metodlar,individual  
yordamchilar, stereotip.*

*Inklyuziv ta‘lim –bu har bitta o‘quvchining maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab bilim olish huquqini ta‘minlashni ko‘zlagan ta‘lim shakli va yondashuvidir. Bunda barcha o‘quvchilar, shu jumladan, jismoniy yoki aqliy nuqsoni bor hamda maxsus ta‘limga muhtoj bolalar birgalikda ta‘lim oladilar.Inklyuziv ta‘lim bilim olish jarayonida tenglik va barcha o‘quvchilarning huquqlarini hurmat qilish bilan kafolatlanadi. Ushbu maqolamda zamonaviy o‘qitish modellarida inklyuziv ta‘limning roli va uning tarixi ,shu bilan birga muammolarga yechimlar bilan tanishtiraman.*

Inlyuziv ta‘lim berish tizimi yaqin yillarda vujudga keldi ammo tarixiy faktlarga qarasak o‘tgan asrlarda ham turli jamiyatlarda inklyuziv ta‘lim shakllariga sezilarli ehtiyoj bo‘lgan. Kuranbayeva Ozoda Xakimovna o‘z maqolasida shunday yozadi: “Inklyuziv ta‘lim XX asrning o‘rtalaridan boshlab yuzaga kelgan bir nechta ijtimoiy va siyosiy harakatlar natijasi hisoblanadi. AQShda 1950–1960-yillardagi fuqarolik huquqlari harakati shuni ko‘rsatdiki,

hatto liberal-demokratik jamiyatda ham ko'plab insonlar ijtimoiy institutlardan, jumladan maktablardan chetlashtirilgan. 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda jins, etnik kelib chiqish, irq yoki imkoniyati cheklanganlik bo'yicha kamsitishga qarshi harakatlar paydo bo'ldi. Birinchi bunday federal qonun – 1975-yilgi Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi to'g'risidagi qonun (EHA – Education for Handicapped Children Act) bo'ldi. Unga qadar imkoniyati cheklangan bolalar alohida sinflarda yoki hatto maxsus maktablarda o'qitilgan. 1970–1980-yillarda ushbu qonun hamda bir qator shtat qonunlari orqali imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga keng jalb qilish imkoni yaratildi. Lekin bu yordam asosan maxsus sinflar yoki maktablar shaklida amalga oshdi. 1990-yilda EHA o'rniga yangi federal qonun – imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi to'g'risidagi qonun (IDEA – Individuals with Disabilities Education Act) qabul qilindi”.

Hozirgi davrda inklyuziv ta'limga keng miqyosda e'tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta'lim va Gospital pedagogika fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasida shunday yozilgan: “Xalqaro miqyosida ta'lim islohotini demokratiyalashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o'zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshladi. Ko'pchilik mamlakatlar “Segregatsiya” ta'limidan voz kechib imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiya jamiyatiga mansub bo'lgan integratsion ta'limni tadbiq qilishni lozim topdi. Keyinchalik inklyuziv ta'limga o'tila boshlandi. Bu o'rinda L.S.Vigotskiyning fikricha: “Maxsus maktablarimizning afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko'r yoki aqli zaif bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchiligiga qaratib barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi”

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Barcha o'quvchilarni to'liq qamrab olish, ya'ni inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga qarab ta'lim shakllarini taqdim etadi, shu bilan birga ularda teng ta'lim olish imkoniyati yuzaga keladi.

2. Teng imkoniyatlar yaratish: ta'lim berish mobaynida har bir maxsus ta'limdagi o'rganuvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish muhitini shakllantirish va har biriga muvaffaqiyatga erishish sharoitlarini taqdim etish.

3. Ijtimoiy integratsiya: Inklyuziv ta'lim o'quvchilarni nafaqat ilmiy balki ijtimoiy va hissiy jihatdan ham birlashtirishga yordam beradi.

4. Differensial yondashuv: o'quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish. Misol uchun maxsus vositalar ( audio kitoblar va zamonaviy texnologiyalar ) yoki individual yordamchilarni jalb etish

Inklyuziv ta'limning afzalliklari: asosan tenglik, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishi, o'qituvchilar uchun yangi metodik yondashuvlar, nogironlik holatlarini qisqartirish, maxsus o'qitish vositalari, individual o'quv dasturlari, o'qituvchilar va yordamchilar

Inklyuziv ta'limdagi asosiy muammolar va ularga yechimlar:

1. O'quv materiallari va o'qitish metodikalarining yetishmasligi hamda darsliklar barcha o'quvchilar darajasiga mos emasligi. Bu muammoga yechim sifatida moslashtirilgan darsliklar va individual ta'lim rejaları (ITR) ishlab chiqish. Multimedia va interaktiv vositalardan foydalanish

2. Jamiyatda noto'g'ri stereotip va qarashlar asosiy muammolardan biri sanaladi. Maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan salbiy munosabat mavjud. Bu muammoni bartaraf etish uchun ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Bular ota-onalar va jamiyat uchun tushuntirish seminarlarini o'z ichiga oladi.

3. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun erkin ta'lim olish muhitini shakllantirish orqali ularda kommunikativ ko'nikmalarni ham yaxshi rivojlantirish mumkin. Aksariyat hollarda, maxsus ehtiyojli bolalar o'zlarini erkin his qilmaydilar va dars mobaynida noqulayliklar yuzaga keladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga ehtiyoji bor bolalar- ularga tashqi muhitdagi odamlar achinish hissi bilan qarashi yoki, sog'lom o'quvchilardan ajratib qo'yishini yoqirmaydilar. Ko'p jamiyatlarda boladagi bu nuqsonga e'tibor bermaslik o'rniga ularni ma'lum guruhlardan ajratib qo'yishadi, bu esa ta'lim jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, inklyuziv ta'lim bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda jismoniy va aqliy nuqsoni bor bolalar uchun juda muhim . Bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun asosiy faktor hisoblanadi. Qolaversa, nuqsoni bor bolalarni alohida sinflar va maktablarda emas, aksincha boshqa bolalar bilan birga ta'lim olishiga sharoit yaratish zarur, shunda o'quvchilar bu muhitni oddiy qabul qiladilar va ijtimoiy cheklanamagan holda ta'limni davom ettiradilar .

### Foydalanilgan addabiyotlar

1. Kuranbayeva Ozoda . Pedagog Respublika ilmiy jurnali 8-tom, 9-son "Inklyuziv ta'limni o'quv jarayoniga tadbiiq etishda yuzaga keladigan muammolar" 2025-25-09

2. O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ,pedagogika va psixologiya kafedrasini .  
Inklyuziv ta‘lim fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmuasi. Toshkent 2025.

3. Ta‘lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.

4. Nogironligi bolgan shaxslarni davlat tomonidan qollab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son Farmoni. 2017-yil 1-dekabr.

5. Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.

